



SULAYMON BOQIRG'ONiy HIKMATLARINING BADIY-IRFONiy OLAMI

Muallif: Elnura Qurbonova ¹

Affiliyatsiya: O'ZR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20208313>

ANNOTATSIYA

Maqolada yassaviylik tariqati va hikmatnavislik an'anasining davomchisi Sulaymon Boqirg'oniy ijodiy merosining badiiy o'ziga xosligi tahlil qilingan. Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlarining asosiy g'oyaviy yo'nalishi, mavzu ko'lami, ishq talqini va oshiq obrazining irfoni mohiyati hamda badiiy-ifodaviy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sulaymon Boqirg'oniy, hikmat, ishq, oshiq, obraz, timsol.

Turkiy xalqlarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayot tarzi bilan bir qatorda islom dinining asosiy davlat dini o'laroq rasman qabul qilinishi yangi bir davrning boshlanishiga sabab bo'ldi. Islom madaniyatining markazlari bo'lgan ko'plab shaharlar qanchadan-qancha buyuk allomalar va daholarni bag'rida ulg'aytirdi. Turkiy adabiyotda ham muhim o'zgarishlar yuz berib, tasavvufning adabiyot bilan birlashuvi sodir bo'ldi. Tasavvuf she'riyati, avvalo, oshiqning nafsida qusurlarni anglab, uni malomat qilish, sabr va ixlos bilan nafs tazkiyasi va ko'ngil tasfiyasiga jiddu jahd ko'rsatish, shuningdek, nafsni yengish yo'lidagi mashaqqatli hollardan bahs yuritadi. Unda nafs va ruh o'rtasidagi ayovsiz kurashda menlik da'vosidan kechgan, qalbi ma'rifat va ishq nuri bilan tirilgan, Haq vuslatiga noil bo'lgan oshiqning erishgan maqomlari tasviri alohida o'rin tutadi.

Tasavvuf ta'limotida butun borliq, jamiki mavjudot ishq sabab yaratilgan va tinimsiz harakatda deb qaraladi. Ishq oshiq uchun ruhiy kamolot mahzani, chinakam ma'naviy fazilatlar bulog'idir. Inson botini ishq bilan obod. Ishq sabab ruh sayqal topadi, go'zallashadi. Insondagi jamiki go'zal hislatlar shu ishq vositasida namoyon bo'ladi. Ishq imon chirog'i, imon esa ruhning tayanchidir. Turkiy tasavvuf she'riyati muassisi Ahmad Yassaviyning izdoshi, yassaviylik tariqati va hikmatnavislik an'anasining davomchi Sulaymon Boqirg'oniy ijodi shu jihatdan ahamiyatli. *"Bu ishq gar bo'lmasa, man netkoy erdim?"* misralari so'fiy shoirning Allohga taslimiyati va yuksak ma'rifatini aks ettirgan. Turkiy xalqlar orasida Hakim Ota nomi bilan keng shuhrat qozongan Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlari tamoman tasavvufiy mavzuda bitilgan. Unda tavhid masalasi, zikr, nafsni malomat qilish, tavba, ruh tarbiyasi, tariqat yo'liga kirgan solik o'zini Haq yo'liga bag'ishlashi lozimligi, ishq va oshiqlik haqidagi fikrlari uning tasavvuf odobi va sayri-suluk masalalariga teran qaraganidan dalolat beradi. Boqirg'oniy hikmatlariga ilohiy ishq va sog'inch tuyg'usi singdirilgan bo'lib, ilohiy Mahbubning tengsiz go'zalligi, Haqning yagonaligi, butun borliq Holiq qudrati va ijodining namunasi ekani ta'kidlanadi. Shu bois chin oshiq vafo-sadoqat, xokisorlik, fidoyilik, kamtarlik va mutavozelik kabi sifatlarini o'zida jamlashi lozim. Oshiq ishqdan



yetgan ranj-u mashaqqatga sabr-qanoat ko'rsatishi, mehnat, azob-uqubatlarga chidam va bardoshli bo'lishi, iztirob yetgan chog'da ishqda sobit turishi muhim. Zero, ishq oshiqning ozuq manbai. Buni Boqirg'oniylar shunday tasvirlaydi:

*Oshiq bo'lur ul kishi, cheksa ishq soyasi,
Ranj-u birla mehnat ul oshiqg'a ishq doyasi [1, 410].*

Ishqning "yo'li uzoq", "tun qatig'", oshiq bu yo'lda "jonini sotig'" qilmas ekan, maqsadga yetish imkonsiz. Oshiqdagi hayron-u parishonlik, chekkan hadsiz azob va poyoni yo'q iztiroblar samarasiz bo'lmaydi, albatta. Doimiy riyozat, tinimsiz uqubat va qiynoqlar uni nafsiy sifatlardan uzilishga sabab bo'ladi. Natijada, oshiqning qalb ko'zi ochilib, ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabt etib boradi. Ishq oshiqni xomlikdan qutqaradi. Inchunin, Boqirg'oniylarning tariqat va hikmatnavislikdagi komil piri Xoja Ahmad Yassaviy buni yanada ta'sirli qilib: "Ishq kimyoyi Ahmar", degan edi. Sulaymon Boqirg'oniylar nazdida esa "ujmoh qapug'in ochgan" ham inson fitratidan "kibr-u nifoqni aritgan" ham "o'lganda qayta tirilish" sababi ham ishqdir. Insonning "kufr-u imon farqiga bormay", cheksiz gunoh-u maziyatlarga berilib, "fasod ishdin arilmas" holga kelishi, "olimlar johil bo'lu"shi esa ishqsizlikdir. Shoir ishqsizlikni nodonlik nishonasi deb biladi. Quyidagi hikmatda mazkur fikrlar yanada ravshan bayon qilingan:

*Tasbehi zunnor bo'lur, sajjodang murdor bo'lur,
Barchasi ag'yor bo'lur, aroda ishq bo'lmasa [1, 412].*

Qalb turfa kechinmalar, sir-asror va tuyg'ular maskani. Gar inson ko'ngil sirlari, dard-u holidan voqif ekan, unga haqiqatlar eshigi ochiladi. Mohiyat sari dadil ildamlaydi. Ko'ngil ishq o'tidan quvvat oladi. Ishq o'ti qanchalar kuchli, otashin bo'lsa, bu o't oshiqni shu qadar toblaydi, alaloqibat, uni ulug' maqomlarga yuksaltiradi. Ishq ahli uchun foyda-yu ziyon, dunyo va uqbo ahamiyatsiz. Oshiqlar ishq o'tiga azaldan muhtalo. Bu o't shavqatsiz va beomon. Oshiq bu yo'lda qancha jabr-u zulm chekmasin, haqir va bechorahol bo'lmasin ma'shuqi uchun jonini fido etishga hozir:

*Oshiqdin so'rmangiz dunyo-vu uqbo,
Oshiq ma'shuqi uchun har dam o'lodur.
Oshiqni kuydurur ishq o'ti,
Oshiqlar ishq o'tig'a muhtalodur [1, 409].*

Yor visolidan umidvorlik oshiqning eng ulug' matlabi. Diydor talabida bo'lgan solik sayr-u sulukda ma'naviy kamolga yetish uchun bir qancha "manzil", "hol" va "maqom"larni bosib o'tgach, chin oshiqqa aylanadi. Shuni ta'kidlash muhimki, "chin oshiqlik" sifati, avvalo, Hazrati payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga xosdir. Haq yo'lida "chin oshiqlik"ka erishgan qullar Muhammad (s.a.v.) singari ulug' maqomga yetadi. Shu bois so'fiylik adabiyotida ishq-u oshiqlikda oliy maqomlarga yuksalish – Yaratgan bilan qurbat hosil qilish, Ilohiy go'zallikdan sarmast bo'lish istagi oshiqning yashash tarzi va maqsadi o'laroq talqin qilingan:

*Qachon bo'lg'ay visoling, jamolingni ko'rsam man,
Mansur yanglig' bo'lubon, dorda majlis qursam man [1, 422].*

Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlarida Mansur Halloj, Shayx Shibliy, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham kabi taniqli mutasavviflar, tasavvuf ahlining yetuk namoyandalari nomi qalamga olingan o'rinlar ko'p. Ularning ishq yo'lidagi turli hollari, Haq oshig'i o'laroq sayr-u sulikda erishgan maqomlari, Haq ishqida mosivoni tark etgani ibrat qilib ko'rsatiladi:

*Mansurdek "Analhaq" deb yig'lab yursam,
Shibliydek oshiq bo'lub samo' qilsam.
Boyaziddek tun-kun tinmay Ka'ba borsam,
Dargohida Xojam qabul qilarmukin? [2, 319]*

Sulaymon Boqirg'oniyning lirik qahramoni ham nafsdan tongan, jondan kechgan oshiq bo'lib, ishqda Junayd, Shibliy, Mansurga izdoshlikni niyat qiladi:

*Tavba qilib, nafsdin tonib, havo otib,
Nafsdin o'tub, o'to o'tub, Haqqa yonib,
Junayd, Shibliy, Mansur yanglig' jondin kechib,
Fano, adam bo'lub, o'lub uchkum kelur [1, 490].*

Umuman olganda, irfoniy adabiyotda ishq ahlining Mansur Hallojga ixlosi, ishq bobida unga o'xshashga orzu qilganlariga, ishq doriga o'zin osishga hozir bo'lish kabi qarashlar yetakchilik qiladi. Zero, ahli dillar nazdida, jondan kechmay visolga yetish imkonsiz. Sulaymon Boqirg'oniy nazdida, chin oshiqlar ishq bobida Mansur Xallojga holdoshdirlar. Oshiqlik shu qadar ulug' maqomki, chin oshiqlar tirik ekan, ishq daftari ado bo'lmaydi. Shayx Mansur Halloj ana shunday o'zidan, o'zligidan, obro'-e'tiboridan, butun borlig'i-yu jonidan kechgan oshiq sifatida gavdalantiriladi:

*Ishq yo'lida oshiq bo'lib, Mansur o'tdi,
Belin bog'lab Haq ishqini mahkam tutdi,
Malomatlar, ihonatlar ko'b eshitti,
Ey mo'minlar, men ham Mansur bo'ldim mano [2, 52].*

Sulikning sayr-u sulukdan asosiy maqsadi – nafsini tizginlash. Oshiq nafs-u jon taqvosiga erishmay, zohirbinlik va dunyo hoy-u havaslaridan uzilmay turib, oshiqlikni "da'vo qilish"i "bulhavaslik"dan boshqa narsa emas. "Bulhavas oshiqlar" esa manzilga yetolmay yo'lda qoldi. Chin oshiqlar Mansur kabi "dard-u holat paydo qilib", "ishq dorinda bosh beradi". Boqirg'oniy hikmatlari yuksak orifona hol va oshiqona shavq-zavq bilan yozilgan.

Insonda jism va ruh, moddiylik va ilohiylik har dam yonma yon yuradi. Qaysi tarafning ustun kelishi yoxud mag'lubiyati undagi diniy, ma'naviy, ruhoniy hayot tarziga, axloqiy me'yorlariga bevosita bog'liqdir. Ilohiy ishq va ma'rifatdan uzoq qalblar adashuvda, razolat va qorong'ulik batqog'iga botar ekan, ruh sarson bo'ladi. Ruhning kamol topib, quvati ortishida ishq asosiy vositadir. Zero, ishq uchun eng muqaddas, eng tabarruk maskan – ko'ngil. Shu bois ko'ngil pokligi va ruh tarbiyasi so'fiy shoir hikmatlarida asosiy masala o'laroq tasvirlanadi. "Oshiqning piri Haqning o'zi", deyiladi, ayrim manbalarda. U fazl-u karam sohibi, cheksiz kuch-quvvat, mutlaq iroda va qudrat egasi. Ishq talabidagi oshiqni, avvalo, Ar-Rob sifati ila Haqning o'zi tarbiyalaydi. Boqirg'oniy shu ma'noga ishora qilib: "Tabib sansan – davo qil", deya

oshiqlik dardiga davo istashi bejiz emas! Adabiyotshunos olim I.Haqqulov ta'kidlaganidek, "Boqirg'oniy ko'nglida *"shavqi ilohiy va zavqi ilohiy"* tug'yon qilgan. Uning tafakkur kuchini to'g'ri belgilash – tahayyul sirlarini kashf etish demak" [3, 64].

Oshiqlik, avvalo, o'zlikni izlash, nafsni tanish. Haq va haqiqatni anglashga intilish. Qalbni irfon nuri bilan yoritib, ko'ngil ko'zi vositasida ilohiy haqiqatlarni ko'rish. Ranj-u riyozatlar bilan ma'naviy karvonda tinimsiz ildamlash natijasida ishqullohga erishishdir. Zero, yaratilish mohiyatini anglagan oshiq, eng avvalo, botiniga yuz tutgan, qalbiy mushohadaga berilgan, zavq va hol zavqini tuygan, haqiqiy ishq talabgori, Mutlaq go'zallik shaydosidir. Visol umidida yonib-tutashgan, ishq yo'lida turli sinov va qiyinchiliklardan qo'rqmay, ranj-u mashaqqatlarni o'ziga rohat deb biladigan, tun-u kun tinimsiz riyozatlar chekib, nafs pokligi, ruh xotirjamligi, shaxsiy butunlikka erishgan, moddiyat domidan qutilgan, muqaddas va pok tuyg'ular ila manzil sari goh umid, gohida qo'rquv bilan ildamlayotgan ilohiy ishq talabgoridir. Irfoniy she'riyatda qalamga olingan oshiq ishqni hayot mohiyati, tiriklik mazmuni deb bilgan, iymoni salomat, bashariy sifatlardan holi, barkamol fazilatlar egasidir. Mazkur obrazning tasavvuf adabiyotidagi mohiyati kengayib, balandroq maqsad-muddaoni aks ettirib borgani ayni haqiqatdir.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf she'riyati namoyandalari, xususan, Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlaridagi ishq mavzusi va oshiq ruhiyatidagi evrilishlarni chuqur o'rganish mutasavwif shoir ijodining g'oyaviy yo'nalishi, tasvir usuli va badiiy mahoratining sir-asrorlarini kengroq tushunish imkonini beradi. Lirik qahramon xarakterini ochishda irfoniy istilohlar mazmun-mohiyatini tadqiq qilish, shoir ijodi kontekstida tahlil qilish undagi nozik va chuqur qirralarni anglashni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turkiy adabiyot durdonalari. 4-jild. Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oniy. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar, S.Rafiddinov, N.Hasan. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 592 b.
2. Xoja Ahmad Yassaviy. Haqdin o'zgani dema. Hikmatlar. Haz: Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan. – Ankara: Akçağ yayınları, 2021. – 398 s.
3. Хаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 184 б.